

Yomg'ir

Donald Bisset




**Rebusni yeching.
Savollarga javob bering.**

1 Siz yomg'irni yaxshi ko'rasizmi?

2 Yilning qaysi faslida yomg'ir ko'proq yog'adi?

3 Yomg'ir tabiat va insonlar uchun qanday foyda keltiradi? U qanday zarar keltirishi mumkin?



O'qing.

Osmonda ikkita bulutcha suzib yurardi. Biringing ismi Mittivoy, ikkinchisiniki esa Sharrosoy edi. Ular juda balanddaligi uchun quyoshning charaqlashi, qushlarning sayrashini va bolalarning ko'chada o'ynashiga xalaqit berishmasdi. Hamma ob-havodan xursand edi.

– Mittivoy, – dedi Sharrosoy, – pastga tushib, chiroyli yomg'ir yog'ib bermaymizmi?

– To'g'ri aytding! Zerikib turgandim.

Ular yerga sharros* yomg'ir yog'dirishdi. Odamlar bundan norozi bo'lishdi.

– Bunchalar yoqimsiz havo bo‘lmasa-ya! – deyishdi ular.
– Chelaklab quyyapti. Naqadar omadsiz kun!
– Oh, jonga tegdi shu yomg‘ir!
– Modomiki, biz ularga yoqmas ekanmiz, unda bu yerdan uchib ketamiz, – dedi Sharrosoy.

Mittivoy ham bu gapga qo‘shildi. Ular uzoqlarga uchib ketishdi. Yomg‘ir tindi. Quyosh charaqlab chiqdi. Hamma xursand bo‘ldi.

– Ajoyib ob-havo! – deya quvonishdi odamlar.

Endi har kuni quyosh charaqlab porlar, kunlar esa borgan sari qizigandan qizib borardi.

Oylar o‘tsa hamki, bir tomchi ham yomg‘ir yog‘madi. O‘t-o‘lanlar sarg‘ayib, qovjiradi*. Gullar so‘lib qoldi. Daraxt barglari to‘kildi. Hovuzlar va ariqlar quridi. Sigirlar o‘tsiz qolib, sut bermay qo‘ydi. Muzqaymoqchi hech qayerdan sut topolmay, muzqaymoq tayyorlay olmadi. Bolalar muzqaymoqsiz qolib, yig‘lab yuborishdi. Sigirlar ham yig‘ladi, hatto o‘rdaklar, otlar, itlar, mushuklar, ota-onalar ham – hamma-hammasi yig‘lashdi.

– Men nima qilish kerakligini bilaman, – dedi Yo‘lbars ismli kuchukcha. – Hammamiz yomg‘irpo‘shlarimizni kiyib, soyabonlarimizni olib, ko‘chaga sayrga chiqishimiz kerak.

– To‘g‘ri topding! – deya uni ma‘qulladi Donald Bisset.

So‘ng hammalari xuddi shunday qilishdi.



Odamlar yomg'irpo'shlarini kiyib, soyabonlarini ochgancha ko'chaga chiqishdi. Mittivoy va Sharrosoy juda hayron bo'lishdi.

- Nega ular bunday kiyinib olishdi?
- Nega soyabonlarini ochishdi?
- Qani, pastroq tushib, nima bo'layotganini ko'raylik-chi?

Bulutchalar pastroq tushishdi. Shunda yana sharros yomg'ir yog'a boshladi.

- Qanday yoqimli yomg'ir! – deya xursand bo'lishdi odamlar.

Hamma juda mamnun edi: Sharrosoy ham, Mittivoy ham, ayniqsa, o'rdaklar juda baxtiyor edi.




sharros – juda ko'p, chelaklab
qovjiramoq – suvsab yoki issiqning zo'ridan so'limoq, qurib bujmaymoq



1. Bulutchalarning ismlari nima edi?
2. Odamlar nima uchun yomg'ir yog'ishidan norozi bo'lishdi?
3. Yomg'ir yog'may qo'yishi qanday oqibatlarga olib keldi?
4. **Chelaklab quymoq** jumlasini tushuntiring.



Donald Bissetning “Yomg'ir” ertagini tinglang. Matndan kuzatib boring va ertakni qayta so'zlab berishga tayyorlaning.



2